


Jahon elastomerlar bozori 2034-yilga qadar 60 foizga o'sishi mumkin.

// 23.07.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/Jahon20260723>

2025-yilda jahon elastomerlar bozori hajmi 109,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Precedence Research prognozlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2026-yilda 115,4 mlrd dollarga, 2034-yilga kelib esa 175 mlrd dollarga yetadi. Bozorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5,34 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.



Qariyb 60 foizlik o'sish avtomobilsozlik, qurilish, tibbiyot va sanoat tarmoqlarida talabning ortishi, shuningdek, yuqori samaradorlikka ega va ekologik toza elastomer materiallarning keng joriy etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, yaqin sakkiz yil davomida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ushbu bozorda yetakchilikni saqlab qoladi. Mintaqaning bozor hajmi 2034-yilga kelib 47 mlrd dollardan 76 mlrd dollargacha o'sishi mumkin. Shu bilan birga, Shimoliy Amerikada elastomerlar ishlab chiqarish sur'ati boshqa barcha mintaqalarga nisbatan eng yuqori bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Ushbu sohadagi yirik kompaniyalar qatoriga BASF SE (Germaniya), El du Pont de Nemours and Company (AQSH), Lanxess AG (Germaniya), The Dow Chemical Company (AQSH) hamda JSR Corporation (Yaponiya) kiradi.